



## MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISH TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK HUJJATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORRUPSIYANI OLDINI OLISH MASALALARI

Mirzaraxmonov Shohruhmirzo Akram o'g'li  
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti  
E-mail: mirzarahmonovshohruhmirzo77@gmail.com  
Telefon raqam-+99890-987-10-95  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20228903>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 14-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 16-may 2026 yil

### KEYWORDS

*ma'muriy sud, korrupsion xavf-xatarlar, odil sudlov, sudning faol ishtiroki, ma'muriy da'vo, sud nazorati.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola ma'muriy sud ishlarini yuritishda yuzaga keladigan korrupsion xavf-xatarlarning sabablari, ularning yashirin tabiati va ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilishdagi oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyani bartaraf etishda xalqaro standartlarni joriy etish, shuningdek, axborot texnologiyalari hamda sun'iy intellektdan foydalanish zarurati yoritilgan. Xususan, ma'muriy jarayonda "sudning faol ishtiroki" tamoyilining kengaytirilishi hamda ma'muriy da'vo institutining aniq turlari bilan joriy etilishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarini davlat organlari bilan munosabatlarda ishonchli himoya qilish kafolati sifatida asoslangan. Tadqiqot natijasida ma'muriy adliya tizimi faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish va O'zbekistonning xalqaro odil sudlov reytinglaridagi o'rnini yaxshilash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

“Transparency International ma'lumotiga ko'ra, 30 foizlik ko'rsatkich bilan sudlar, dunyodagi eng korrupsiyaviy tuzilmalardan biri hisoblanadi”<sup>1</sup>. “World Justice Project (WJP) ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi uch yil davomida qonun ustuvorligi butun dunyo bo'ylab, hatto ushbu ko'rsatkich odatda yaxshilanib kelayotgan davlatlarda ham pasayishi kuzatilmoqda. Buning sabablaridan biri sudlarda korrupsiyaning saqlanib qolayotganligi”<sup>2</sup>.

Ma'muriy protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish zamonaviy huquqiy davlat qurilishi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Korrupsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi, fuqarolarning davlat organlari va sud tizimiga bo'lgan ishonchini yo'qotuvchi illatdir. Shu bois, unga qarshi kurashda nafaqat jinoiy-huquqiy, balki protsessual qonunchilikni ham takomillashtirish talab etiladi. Ma'muriy protsessual qonunchiligi sud ishlarini yuritishda shaffoflik va adolatlilikni ta'minlash, korrupsion holatlarning oldini olish uchun mustahkam huquqiy baza yaratadi. Ma'muriy

<sup>1</sup> <https://www.transparency.org/en/gcb>.

<sup>2</sup> World Justice Project® (WJP) <https://worldjusticeproject.org/our-work/research-and-data/wjp-rule-law-index>.

protsessual qonun hujjatlari korrupsion xavf-xatarlarni oldini olishda hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Zero, qonun ustuvorligi va sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashda huquqiy asoslarning aniqligi, mukammalligi va bir xil qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lgan ba'zi bo'shliqlar, huquqiy kolliziyalar, protsessual muqarrarlikning yetishmasligi yoki ortiqcha ixtiyoriylik korrupsiyaga moyil sharoitlarni yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, sud protsesslarining cho'zilishi, sudyalarning vakolatlaridan noto'g'ri foydalanish, protsessual muddatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish, sudning mustaqilligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar korrupsiyaga sharoit yaratmoqda. Shu sababli, ma'muriy protsessual qonunchiligini takomillashtirish va unda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'muriy sudlar ko'radigan ishlar doirasiga idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish, davlat boshqaruvi organlari va ma'muriy organlar, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan nizolashish, notarial hamda ro'yxatga olishga oid ayrim tortishuvlar kirishi ko'rsatilgan. Demak, ma'muriy sud yurituvchi amalda davlat hokimiyatining kundalik qaror qabul qilish faoliyati bilan to'qnash keladigan barcha asosiy nuqtalarda ishlaydi. Shu sababli aynan ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi protsessual noaniqliklar, ortiqcha diskreksiya, oshkoralikning yetishmasligi, dalillar bilan ishlashdagi bir xillikning yo'qligi, sud qarorlarining ijro etilishi ustidan ta'sirchan mexanizmlarning sustligi korrupsiyaga qulay muhit yaratadi

Masalaning nazariy tomoni ham shuni ko'rsatadiki, ommaviy-huquqiy nizolarda taraflar tabiatan teng emas: bir tomonda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan ma'muriy organ, ikkinchi tomonda esa o'z buzilgan huquqini tiklashga intilayotgan fuqaro yoki yuridik shaxs turadi. Shu sababli ma'muriy protsess oddiy tortishuv modeli bilan cheklanib qolsa, u real tenglikni emas, formal tenglikni vujudga keltiradi. Inomovning dissertatsiyasida ham ommaviy-huquqiy nizolarning aynan huquqiy tengsizlik sharoitida yuzaga kelishi, sudning faol ishtiroki esa ana shu tengsizlikni protsessual yo'l bilan muvozanatlashtirish vositasi ekani ko'rsatilgan. Agar ushbu muvozanatlashtiruvchi mexanizm yetarli darajada ishlamasa, ma'muriy organning hujjatlar, axborot, ekspertiza, ichki ma'lumotlar va xizmat resurslariga egaligi korrupsion bosim uchun qulay asosga aylanadi.

Shu o'rinda ma'muriy sud qonunchiligini korrupsiyani oldini olishning mustaqil vositasi sifatida baholash uchun kamida uchta mezonni ajratish mumkin. Birinchi mezon – fuqaroga davlat organi bilan tortishishda real protsessual ustunlik berish emas, balki kamida teng himoya imkoniyatini yaratish. Ikkinchi mezon – ma'muriy organ faoliyatini tekshirish jarayonining maksimal darajada shaffof va izchil tartibga solinishi. Uchinchi mezon – sud qarori bilan tiklangan huquq amalda ham tiklanishini ta'minlovchi ijro va javobgarlik mexanizmlarining mavjudligi. Aks holda sud qarori deklarativ hujjat bo'lib qoladi, bunday vaziyat esa ma'muriy organga nisbatan “sudda yutqazsa ham, ijro etmaslik mumkin” degan xavfli psixologik fonni shakllantiradi.

Bugungi amaliyot va ilmiy manbalar tahlili ma'muriy sud yurituvchi doirasida korrupsiyaga imkon beruvchi bir nechta asosiy muammolarni ko'rsatmoqda. Birinchi muammo – taalluqlilik va da'vo predmetining yetarli darajada aniq chegaralanmaganidir. Ba'zi olimlar ommaviy-huquqiy nizolar va ma'muriy nizolar mazmunan yaqin bo'lsa-da, ularni boshqa

protsessual yurisdiksiyalardan ajratishdagi noaniqlik amaliyotda chalg'ituvchi omil bo'layotganini qayd etadilar. Ba'zilari esa idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni haqiqiy emas deb topish bo'yicha alohida protsessual tartibning to'liq rivojlanmaganini, ayniqsa qonunosti hujjatlar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ xarakterdagi qarorlari ustidan nizolashish mexanizmlarini yanada aniqlashtirish zarurligini asoslaydi. Taalluqlilikdagi bunday noaniqlik fuqaroga ortiqcha xarajat va vaqt yo'qotishiga olib keladi, ma'muriy organga esa protsessual xatolar ortiga yashirinish imkonini beradi.

Ikkinchi muammo – sudga murojaat qilishning mavjud protsessual shartlari amalda hamma subyektlar uchun bir xil darajada qulay emasligidir. MSiyTK 186-moddasiga ko'ra, ma'muriy sudlarga murojaat qilishning umumiy muddati olti oy, ayrim hollarda esa ya'ni davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sudga berilishi mumkin<sup>3</sup>. Ushbu muddatlar tartib-intizom uchun muhim bo'lsa-da, ommaviy-huquqiy nizolarning ko'plab turlarida fuqaro yoki tadbirkor o'z huquqi buzilganini darhol anglamaydi, ma'muriy organ esa hujjatlar va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim qilmasligi mumkin. Natijada qisqa muddatlar real himoya vositasidan ko'ra, ba'zan protsessual to'siqqa aylanadi. Davlat dasturida ma'muriy sudga murojaat qilganda undiriladigan davlat boji stavkalarini pasaytirish bo'yicha loyiha ishlab chiqilgani ham aynan odil sudga erishish imkonini kengaytirish zarurati bilan bog'liqdir. Bu masala korrupsiyaning oldini olish nuqtai nazaridan muhim, chunki sudga kirish qanchalik qiyinlashsa, norasmiy "kelishuv" ehtimoli shunchalik oshadi.

Uchinchi muammo – sudning faol ishtiroki prinsipi normativ va amaliy jihatdan mavjud bo'lsa-da, uning qo'llanish doirasi hamda protsessual oqibatlari yetarli darajada tizimlashtirilmaganidir. Ma'muriy sudlar ishning haqiqiy holatlarini aniqlash uchun o'z tashabbusi bilan dalillar yig'ishi, fuqaro yoki tadbirkor esa faqat o'z imkoniyati doirasida dalil to'plashda ishtirok etishi ko'zda tutilgan. Biroq ayni prinsipning qaysi ish toifalarida, qaysi protsessual bosqichda, qanday daliliy standart asosida qo'llanishi aniq mexanizmga aylantirilmasa, u faqat deklarativ qoida bo'lib qoladi. Bu esa ma'muriy organning dalillarni yashirishi yoki kechiktirishi orqali sudni chalg'itish xavfini saqlab qoladi.

To'rtinchi muammo – ma'muriy organning o'zida shakllangan ma'muriy ish materiallarini sudga to'liq va o'z vaqtida taqdim etish majburiyatining yetarli darajada aniq majburiy reglamentga ega emasligidir. Ommaviy-huquqiy nizoda asosiy hujjatlar, odatda, aynan ma'muriy organning ichki ish yurituv tizimida bo'ladi: qaror loyihasi, xizmat yozishmalari, ma'lumotnoma, xulosa, elektron tizimdagi qaydlar, roziliklar va rad etish asoslari. Agar ushbu hujjatlarni taqdim etmaslik yoki to'liq bermaslik uchun jiddiy protsessual oqibatlar nazarda tutilmasa, ma'muriy organ "vakolat ustunligi" dan foydalanadi. Bu ustunlik korrupsiya uchun ayniqsa qulay, chunki fuqaroda huquqi buzilganini isbotlash uchun yetarli ma'lumot bo'lmaydi, biroq ma'muriy organ ichki materiallarni tanlab ko'rsatish orqali jarayonni o'z foydasiga burishi mumkin.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 186-modda. <https://lex.uz/docs/-3527353>.

Beshinchi muammo – dastlabki himoya choralari instituti amalda juda zarur bo'lsa-da, uning qo'llanishi bo'yicha standartlarning izchil emasligidir. Dastlabki himoya choralari faqat arizachining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hal qiluv qarori qabul qilinmaguncha aniq xavf mavjud bo'lsa yoki bunday choralar ko'rilmasa, himoya qilish qiyinlashsa qo'llanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Choralar sifatida nizo predmetiga taalluqli harakatlarni taqiqlash, mol-mulk realizatsiyasini to'xtatish, nizolashilayotgan hujjat ijrosini to'liq yoki qisman to'xtatib turish mumkin. Mazkur institut kuchli anti-korrupsion ahamiyatga ega, chunki aynan tezkor himoya bo'lmagan vaziyatda taraflar norasmiy vositalar orqali qarorni "to'xtatib turish" yoki "tezlashtirish" yo'lga murojaat qilishi mumkin. Biroq dastlabki himoya choralari rad etish yoki qanoatlantirish mezonlari yetarli darajada bir xillashtirilmagan bo'lsa, u ham korrupsiyaviy xatar manbaiga aylanadi.

Yettinchi muammo – ma'muriy sud qarorlarining ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarining to'liq kuch bilan ishlamasligidir. Agar ma'muriy organ sud qarorini kechiktirishi, qisman bajarishi yoki yangi shaklda qayta buzishi mumkin bo'lsa, fuqaroni haqiqiy himoya qilish o'rniga, aksincha buzilgan huquqlarini tiklanmasligiga va sudga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda korrupsiyaning ikki ko'rinishi paydo bo'ladi: birinchisi, qaror ijrosini "tezlashtirish" uchun norasmiy talablar; ikkinchisi, ijroni cho'zish evaziga manfaatdor tomonlarga yashirin ustunlik berish.

Sakkizinchi muammo – ma'muriy sud ish yurituvchi qonunchiligi bilan korrupsiyaga qarshi maxsus qonunchilik o'rtasidagi integratsiya yetarli emasligidir. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yangi qonun, tegishli prezident farmon va qarorlari davlat organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, o'dob-axloq komissiyalari va maxsus bo'linmalar faoliyatini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Biroq ma'muriy sud ishlarida aynan ushbu ichki komplayens hujjatlari, xabarnomalar, deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvi reyestrlaridan dalil sifatida foydalanish tartibi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Holbuki, ma'muriy qarorning qonuniyligi ko'p hollarda qaror qabul qilgan mansabdor shaxsda shaxsiy manfaatdorlik mavjud yoki mavjud emasligi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish orqali korrupsiyani oldini olish bo'yicha birinchi asosiy taklif sifatida Kodeksning maqsad va vazifalariga alohida anti-korrupsion yo'nalishni kiritish maqsadga muvofiq. Ya'ni Kodeksning umumiy qoidalarida ma'muriy sud ishlarini yuritishning vazifalari qatorida nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki ma'muriy organlar faoliyatida qonuniylik, oshkoralik, xolislik va hisobdorlikni ta'minlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga ko'maklashish ham bevosita ko'rsatilishi kerak. Bunday norma deklarativ tuyulishi mumkin, biroq u keyingi barcha protsessual institutlarni sharhlash va qo'llashda yo'naltiruvchi funksiyani bajaradi.

Ikkinchi taklif – ma'muriy sud yurituvchi da'vo turlarini aniq ajratish va ularning har biri uchun alohida protsessual qoidalar va muddatlarni joriy etishdir. Bu juda muhim, chunki bugungi amaliyotda qarorni bekor qilish, harakatsizlikni noqonuniy deb topish, ma'muriy organni muayyan harakatni bajarishga majbur qilish, normativ hujjatni haqiqiy emas deb topish va zarar oqibatlarini bartaraf etish kabi talablar bir xil protsessual modelda ko'rilishi sud uchun ham, taraflar uchun ham noaniqlik tug'diradi. Da'vo turlarining aniq klassifikatsiyasi esa

sudning vakolatini, dalillar standartini, muddatlarni va himoya choralari oldindan tushunarli qiladi. Tushunarli protsess esa korrupsion “kelishuv”larga ehtiyojni kamaytiradi.

Uchinchi taklif – taalluqlilik va sudlovga tegishlilik qoidalarini aniqroq ifodalash. Xususan, ma'muriy ishlar doirasi bilan fuqarolik va iqtisodiy nizolar chegarasini ajratishda “nizoning huquqiy mohiyati” hamda “davlat vakolatining amalga oshirilishi” mezonlarini Kodeks yoki Oliy sud Plenumi darajasida yanada ravshanlashtirish lozim. Bizning tadqiqotda aynan shu masaladagi noaniqlik amaliy muammo ekani o'z ifodasini topdi. Mazkur noaniqlik saqlanib qolsa, ma'muriy organ vakillari yurisdiksiyani tanlashdagi murakkablikdan foydalangan holda tarafni charchatish, ishni cho'zish va ayni vaziyatdan norasmiy “yechimlar” uchun foydalanishi mumkin.

To'rtinchi taklif – idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ xususiyatga ega qarorlari ustidan nizolashish bo'yicha alohida va soddalashtirilgan, biroq ta'sirchan protsessual tartibni yaratishdir. Bunda kamida quyidagilar nazarda tutilishi lozim: birinchidan, jamoaviy yoki nomuayyan doiradagi shaxslar manfaatida murojaat qilish imkoniyati; ikkinchidan, prokuror, Ombudsman, Biznes-ombudsman va tegishli hollarda jamoat birlashmalari tomonidan da'vo berish imkoniyatlari; uchinchidan, normativ hujjat ustidan ish ko'rilayotganda uni qabul qilish jarayonidagi barcha huquqiy ekspertiza materiallari, korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosalari, manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ichki ma'lumotlar sudga majburiy taqdim etilishi.

Beshinchi taklif – sudning faol ishtiroki prinsipini aniq protsessual algoritmgaga aylantirish. Buning uchun Kodeksda kamida to'rtta qoidani mustahkamlash zarur: a) ma'muriy organ sud talab qilgan hujjat va ma'lumotlarni to'liq, asl nusxada yoki elektron tasdiqlangan shaklda taqdim etishi shartligi; b) bunday majburiyat bajarilmasa, tegishli holatni ma'muriy organ zarariga talqin qilish imkoniyati; v) sud tomonidan talab qilingan ma'lumotni yashirish intizomiy yoki ma'muriy javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi; g) ma'muriy ishning to'liq ma'muriy papkasi sudga yuborilmasdan turib ishni mazmunan ko'rishga yo'l qo'yilmasligi. Bu qoidalar fuqaroga daliliy tenglikni ta'minlaydi va ma'muriy organ ichki hujjatlarni tanlab taqdim etish orqali protsessni manipulyatsiya qilishining oldini oladi.

Oltinchi taklif – ma'muriy organ zimmasidagi isbotlash yukini yanada kuchaytirish va uni moddiy-huquqiy jihatdan aniqroq bog'lashdir. Rasmiy davlat sharhlarida ham ma'muriy organning qarori, harakati yoki harakatsizligi noqonuniy emasligini isbotlash majburiyati aynan uning zimmasida bo'lishi zarurligi ko'rsatilgan. Mazkur qoida Kodeksda shunchaki umumiy prinsip sifatida emas, balki aniq elementlarga bo'linishi kerak: qarorning vakolatli organ tomonidan qabul qilingani; protsedura buzilmagani; maqsad qonuniy bo'lgani; qo'llanilgan choralar mutanosib ekani; manfaatlar to'qnashuvi yoki shaxsiy manfaatdorlik mavjud emasligi; qaror uchun yetarli faktik asos bo'lgani. Bunday struktura qarorni sudda tekshirishni osonlashtiradi va korrupsion motivli qarorlarni yashirish imkoniyatini kamaytiradi.

Yettinchi taklif – dastlabki himoya choralari bo'yicha yagona standart va qisqa protsessual muddatlarni joriy etishdir. Sud mazkur iltimosnomalarni ko'rib chiqishda “aniq xavf”, “qiyin yoki imkonsiz tiklanish”, “jamoat manfaatlari bilan muvozanat”, “mutanosiblik” kabi mezonlar bo'yicha qisqa asoslantirilgan ajrim chiqarishi shart bo'lishi lozim. Shuningdek, ma'muriy organning nizolashilayotgan hujjatini to'xtatib turish haqidagi masalani ko'rib chiqishda sudga elektron materiallarni zudlik bilan olish imkonini beruvchi raqamli tartib

zarur. Rasmiy manbalarda dastlabki himoya choralarining mazmuni belgilangan bo'lsa-da, ularni qo'llash amaliyotini bir xillashtirish anti-korrupsion maqsadlar uchun ham muhimdir.

Sakkizinchi taklif – sudga murojaat qilish shartlarini fuqaroga qulaylashtirish. Bunda bir necha yo'nalish zarur. Birinchidan, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj shaxslar, jamoat manfaatini ko'zlab berilgan ma'muriy da'volar va normativ hujjatlar ustidan shikoyatlar bo'yicha davlat boji yoki boshqa xarajatlarni kamaytirish yoxud ozod etish mexanizmini kengaytirish. Ikkinchidan, umumiy uch olti oylik muddat saqlangan holda “huquqlari buzilganligini to'g'risida bilgan payt” mezonini foydalanuvchi uchun qulay va isbotlanadigan shaklda sharhlash. Uchinchidan, elektron murojaat, masofaviy ishtirok va sud xabarnomasining to'liq raqamli tizimini majburiy ravishda tatbiq etish.

To'qqizinchi taklif – ma'muriy sud ishlarida manfaatlar to'qnashuvi omilini mustaqil tekshiruv predmeti sifatida kiritish. “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonun davlat organlari xodimlari uchun deklaratsiya, xabarnoma, odo-axloq komissiyasi va maxsus bo'linmalar tizimini belgilaydi; mavjud manfaatlar to'qnashuvi bir ish kuni ichida xabar qilinishi, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalar taqdim etilishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi rasmiy manbalarda qayd etilishi lozim. Shunday ekan, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi Kodeksda ma'muriy qarorning qonuniyligini tekshirayotganda manfaatlar to'qnashuviga doir ma'lumotlarni ham talab qilish va baholash huquqini aniq mustahkamlash zarur. Bu, ayniqsa, yer ajratish, litsenziya, ruxsatnoma, davlat ro'yxatidan o'tkazish, tenderga ruxsat berish kabi ma'muriy ishlarni ko'rishda juda muhimdir.

O'ninchi taklif – ma'muriy ishlarni yuritishda oshkoralikning protsessual standartlarini kengaytirishdir. Bu yerda ikki omil mavjud. Birinchisi, sudning o'zi bo'yicha: ishlar harakati, majlis sanasi, qabul qilingan ajrim va qarorlar, ijro holati bo'yicha ochiq elektron reyestr yuritilishi kerak. Ikkinchisi, ma'muriy organ bo'yicha: nizolashilayotgan qarorni tayyorlash jarayonida asos bo'lgan normativ, xizmat va daliliy materiallarning identifikatsiya qilinadigan ro'yxati tuzilishi lozim. Ana shu ikki reyestr bir-biri bilan tutashtirilsa, hujjatlarni yashirish, sanalarni “orqaga surish”, ishni asossiz cho'zish va manfaatdor shaxsni ma'lumotdan uzib qo'yish holatlari keskin kamayadi. Taraqqiyot strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy axborot, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish vazifasi ham aynan shu yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'n birinchi taklif – sudgacha hal etish mexanizmlarini ma'muriy protsessning muqobili sifatida emas, balki unga tayyorlovchi shaffof bosqich sifatida rivojlantirishdir. Biroq bu yerda ehtiyotkorlik talab etiladi. Majburiy sudgacha bosqich haddan ortiq byurokratik bo'lsa, u korrupsion “omil”ga aylanadi; biroq yaxshi tartibga solingan sudgacha ko'rib chiqish esa ma'muriy organning o'zi xatosini tuzatishi va sud yukini kamaytirishi mumkin. Shu bois Kodeksda sudgacha ko'rib chiqish faqat ayrim toifadagi ishlar uchun va qat'iy muddatlar, elektron qayd, rad etish sabablarini to'liq ko'rsatish, barcha hujjatlarni keyinchalik sudga yuborish majburiyati bilan qo'llanishi kerak.

O'n ikkinchi taklif – sud qarorlari ijrosini ta'minlash bo'yicha shaxsiylashtirilgan javobgarlikni kuchaytirish. Ma'muriy organga nisbatan chiqarilgan qaror ijro etilmasa, faqat tashkilot emas, balki ijroga mas'ul mansabdor shaxsning o'zi bo'yicha ham chora ko'rilishini nazarda tutuvchi mexanizmlar zarur. Masalan, ijro haqida sudga elektron hisobot berish majburiyati, muddatni buzganlik uchun jarima, takror buzilgan hollarda intizomiy

materiallarni tegishli organlarga yuborish, ma'muriy organ rahbarining shaxsiy izohi va ijro uchun harakat rejasini talab qilish kabi choralar. Ayniqsa noqonuniy qaror bekor qilingandan keyin uning haqiqiy ijro mexanizmini mustahkamlash zarurligi amaliyotda dolzarbligicha qolmoqda. Ijro masalasida muqarrar javobgarlik bo'lmasa, sud himoyasi korrupsiyaga qarshi real institutga aylana olmaydi.

O'n uchinchi taklif – ma'muriy sud ishlarini yuritish bo'yicha sudyalari va ma'muriy organ xodimlari uchun maxsus anti-korrupsion protsessual treningni qonunchilikdan kelib chiqadigan majburiy talab sifatida joriy etishdir. Sudyalari uchun idoraviy normativ hujjatlar yuzasidan nizolarni ko'rishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil etish taklifini ilgari suradi. Ushbu yondashuvni kengaytirib, ma'muriy organ yuristlari, ichki nazorat bo'linmalari, davlat xizmatlari markazlari va mahalliy hokimliklar xodimlari uchun ham sud nazorati standartlariga oid o'quv modullarini joriy etish lozim. Bu chora korrupsiyaning "bilimsizlik fonida yashash" imkoniyatini kamaytiradi.

O'n to'rtinchi taklif – ma'muriy sud yurituvini bilan bog'liq asosiy protsessual harakatlarni maksimal raqamlashtirish va izsiz qolmaydigan elektron audit izi yaratishdir. Elektron taqsimot, majlis xabarnomalari, hujjat topshirish sanasining avtomatik qaydi, sud tomonidan so'ralgan materiallarning qachon yuborilgani, kim tomonidan ochilgani, qachon ko'rilgani kabi elektron izlar korrupsiyaga qarshi kuchli vositadir. Chunki korrupsiya odatda norasmiy va qayd etilmaydigan aloqalarda yashaydi. Jarayon to'liq raqamli kuzatilganda esa ishni asossiz "ichkarida ushlab turish", bir tarafga oldindan ma'lumot berish, hujjat kelgan-kelmaganini inkor qilish singari holatlar ancha cheklanadi.

Albatta, qonunchilikni takomillashtirishning o'zi korrupsiyani avtomatik yo'qotmaydi. Biroq ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikda protsessual noaniqlik qancha kam bo'lsa, diskretion harakat doirasi qancha aniq chegaralansa, ma'lumotlar aylanishi qancha shaffof bo'lsa, ish yuritishning har bir bosqichi qanchalik qayd etilsa va sud qarori ijrosi shunchalik muqarrar bo'lsa, korrupsiyaning namoyon bo'lish ehtimoli shuncha kamayadi. Shu ma'noda ma'muriy protsess – bu faqat nizoni hal qiluvchi jarayon emas, balki davlat boshqaruvini "qonuniy va toza ishlashga majbur qiluvchi" mexanizmdir.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish orqali korrupsiyani oldini olish masalasi uch yo'nalishda hal etilishi kerak. Birinchi yo'nalish – normativ aniqlik: taalluqlilik, da'vo turlari, dalillar, muddatlar, normativ nazorat va ijro mexanizmlarini ravshan ifodalash. Ikkinchi yo'nalish – protsessual shaffoflik: elektron reyestrlar, sudning faol ishtiroki, manfaatlar to'qnashuviga oid ma'lumotlarning ochiqligi va raqamli izlar. Uchinchi yo'nalish – muqarrar ijro va javobgarlik: sud qarorini bajarmagan ma'muriy organ va mansabdor shaxs uchun real oqibatlar. Ana shunda ma'muriy sud yurituvini fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash bilan birga, ma'muriy boshqaruvdagi korrupsiyaviy omillarni tizimli ravishda siqib chiqaruvchi huquqiy mexanizmga aylanadi.

Shu bois tadqiqot doirasida quyidagi yakuniy konseptual xulosani ilgari surish mumkin: ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikning takomillashgan modeli "faol, oshkora, daliliy tenglikni ta'minlaydigan, manfaatlar to'qnashuvini ko'ra oladigan, normativ va individual aktlarni samarali nazorat qiladigan hamda qaror ijrosini muqarrar ta'minlaydigan protsess" bo'lishi kerak. Bunday model nafaqat odil sudlov sifatini oshiradi, balki korrupsiyani oldini olish bo'yicha davlat siyosatining sud-huquqiy tarkibiy qismiga aylanadi. Mazkur

yondashuv O'zbekistonning amaldagi strategik islohotlari, rasmiy huquqiy siyosati va milliy ma'muriy yustitsiya rivojlanishining bugungi bosqichiga to'la mos keladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil.: "Xalq so'zi" [Elektron manba]. URL: [http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat mirziyoevning-ij-mazhlisga-murozhaatnomasi](http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ij-mazhlisga-murozhaatnomasi).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil.: "Xalq so'zi". [Elektron manba]. URL: [http://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat irziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi](http://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-irziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining SH.M.Mirziyoyevning "Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlari takomillashtiriladi" nomli mavzuda o'tkazilgan yig'ilish // 11.02.2020 y. [Elektron manba]. URL: [https://uza.uz/oz/politics/korrupsiyaga-arshi kurashish- amda-zhamoatchilik-nazorati-ti-11-02-2020](https://uza.uz/oz/politics/korrupsiyaga-arshi-kurashish-amda-zhamoatchilik-nazorati-ti-11-02-2020).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat – bozor iqtisodiyotiga qat'iy o'tish jarayonida prinsipial masala" nomli mavzuda o'tkazilgan yig'ilish // 28.05.2020 yil. [Elektron manba]. URL: [https://uza.uz/oz/politics/ra-obat bozor-i-tisodiyetiga-atiy-tish-28-05-2020](https://uza.uz/oz/politics/ra-obat-bozor-i-tisodiyetiga-atiy-tish-28-05-2020).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi//30.06.2020. [Elektron manba]. URL: [https://uza.uz/oz/politics/odil1-sudlovni-taminlash-va-korrupsiyaga arshika- 30-06-2020](https://uza.uz/oz/politics/odil1-sudlovni-taminlash-va-korrupsiyaga-arshika-30-06-2020).
- 6.
7. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC), 2003-yil. United Nations Office on Drugs and Crime, [www.unodc.org](http://www.unodc.org).
8. Yevropa Kengashining 1999-yil 4-noyabrdagi "Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi (Strasburg). [www.coe.int](http://www.coe.int).
9. Transparency International. (2024). Corruption Perceptions Index (CPI) 2024. [www.transparency.org](http://www.transparency.org).
10. World Justice Project. (2023). Rule of Law Index 2023. [www.worldjusticeproject.org](http://www.worldjusticeproject.org).
11. OECD. (2017). Preventing Corruption in Public Procurement. [www.oecd.org](http://www.oecd.org).
12. Ethics Committee on AI. (2020). Ethical Guidelines for AI in Judiciary. UNESCO, p. 15.
13. O'zbekiston Respublikasining 28.07.2021 yildagi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-sonli Qonuni <https://lex.uz/docs/-5534923>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.01.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi 419-sonli Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-3088008?ONDATE=21.04.2021>.
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.12.2019 yildagi 24-son, <https://lex.uz/docs/-4711311?ONDATE=20.11.2023>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4355387>.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/4875784>.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrda "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6127-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5146554>.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6257-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5495529>
20. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti. [www.sud.uz](http://www.sud.uz).
21. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
22. Transparency International rasmiy sayti. [www.transparency.org](http://www.transparency.org).
23. World Justice Project rasmiy sayti. [www.worldjusticeproject.org](http://www.worldjusticeproject.org).
24. World Bank rasmiy sayti. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).
25. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). [www.unodc.org](http://www.unodc.org).
26. Yevropa Kengashi rasmiy sayti. [www.coe.int](http://www.coe.int).
27. LexisNexis rasmiy sayti. [www.lexisnexis.com](http://www.lexisnexis.com).

INNOVATIVE  
ACADEMY